

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TUROPOVA MA'MURA SAFAR QIZI

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI XODIMLARIDA
KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK OMILLARI

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
the Psychological Sciences**

Turopova Ma'mura Safar qizi

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni
shakllantirishning psixologik omillari3

Туропова Маъмура Сафар кизи

Психологические факторы формирования профессиональных навыков
у сотрудников будущей дошкольной образовательной организации21

Turopova Ma'mura Safar qizi

Psychological factors of formation of professional skills in the employees of the
future preschool educational organization41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works46

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TUROPOVA MA'MURA SAFAR QIZI

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI XODIMLARIDA
KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK OMILLARI

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda maktabgacha ta'lim jarayonini takomillashtirish hamda bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2020-yilda UNESCO tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim xodimlarining 60 % o'zlarining kasbiy ko'nikmalarini oshirish uchun qo'shimcha trening va ta'limga muhtoj ekanligi aniqlangan¹. Shuningdek, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning statistik ma'lumotlariga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining 70 foizi bolalarning psixologik jihatdan rivojlanishini tushunishi uchun qo'shimcha bilim va ko'nikmalarga ehtiyoj sezishi kuzatilgan². Demak, intellektual salohiyat hamda ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan uyg'unlashgan ta'lim tizimi bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda psixologik nuqtayi nazardan dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish, tarbiyachi-pedagog professional kompetentligini psixologik baholash orqali rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 2022-yilda 175 milliondan ortiq bola maktabgacha ta'limga muhtoj, ammo ushbu bolalarning atigi 50% dan kamrog'i sifatli ta'lim olmoqda³. Shuning uchun bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti ijtimoiy muhitining bola shaxsiga fasilitativ va ingibitsion ta'siri bo'yicha psixologik muammolarni aniqlash asosida «tarbiyachi-ota-onalar diadasi»da hamkorlikni takomillashtirish kabi masalalarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'yilgan talablarni normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlashga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilanib, ularni amalga oshirish asoslari yaratilmoqda. «Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari: bolalarga professional darajada ta'lim va tarbiya berishi, pedagogik etikaga rioya etishi, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularni zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilishi, o'z kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi shart» ekanligi ustuvor yo'nalishlarning biri sifatida belgilangan. Mazkur mas'uliyatli vazifalarning amaliy jihatdan bajarilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida ijtimoiy-psixologik kompetentlikni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va uni bevosita amaliyotda qo'llash yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374685>

² <https://www.oecd.org/education/school/early-childhood-education-and-care.htm>

³ https://www.google.com/search?q=UNICEF&dq=UNICEF&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIGCAEQRRg7MgcIAhAAGI8C0gEHMjY3ajBqNKgCALACAA&sourceid=chrome&ie=UTF-8

to'g'risida», 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli «Ilm-fanni 2030-yilgacha shakllantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi Farmonlari, 2019-yil 16-dekabrda «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida» gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-sonli «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini shakllantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi qarorlari faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda maktabgacha ta'limni rivojlantirishga oid pedagogik va psixologik tadqiqotlar Sh.R.Barotov, G.Berdiyev, Sh.J.Bekova, R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, S.X.Jalilova, V.M.Karimova, N.M.Majidov, A.M.Mashkurov, N.X.Murataliyeva, Z.T.Nishonova, E.A.Xidirov, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, K.B.Qodirov, B.R.Qodirov, V.A.Tokareva, N.S.Safoyev va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH olimlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarida kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalalari A.Arushanova, M.Bakina, Y.Bern, R.S.Bure, A.A.Verbitskiy, M.I.Dyachenko, N.D.Levitov, Y.A.Klimov, K.K.Platonov, L.A.Kandibovich, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, V.A.Krutetskiy, L.M.Mitina, N.F.Talizina va boshqalarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida xodimlarning kasbiy ko'nikma va ularning kasbiy faoliyatga tayyorlik masalalari xorijlik olimlar A.Bandura, A.S.Belkin, J.Chen, C.Chang, A.Gagnon, C.C.Johnston, S.H.Landry, G.V.Kaprara S.Kuger, V.B.Kosminskaya, V.K.Kotirlo, A.Maslou, M.Montessori, K.Rodjers, J.Piaje, J.Rennis va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-1-173-raqamli «Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan (2021-2023 y.y).

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik omillarini o'rganish asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish muammosining ilmiy-nazariy asoslarini tahlil etish;

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlarni aniqlashtirish;

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni integratsiyalovchi individual psixologik bog'liqliklarni asoslash;

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan psixologik trening dasturi va modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik omillarini o'rganish belgilangan bo'lib, tadqiqotga Qarshi davlat universitetidan 140 nafar, Toshkent davlat pedagogika universitetidan 125 nafar hamda Andijon davlat universitetidan 110 nafar, jami, 375 nafar respondent jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik omillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, anketa, metodlaridan, shuningdek, I.Solominning «Kasbiy moyillik» so'rovnomasi, Chumakovning «Shaxsning kasbiy irodaviy-mas'uliyat sifatlarini o'rganish» metodikasi, Pantelev va Stolinning «Subyektiv lokus nazorat» so'rovnomasi hamda hammualliflikda (B.Jo'rayev, M.S.Turopova) ishlab chiqilgan «Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarda kasbiy ko'nikmalarni aniqlash» so'rovnomalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda ta'lim olish motivlari mas'uliyatlilik mustaqillikni, ijodiy fikrlash esa tashabuskorlik va maqsadga intiluvchanlikni namoyon bo'lishiga ta'sir etganligi tufayli, suggestiv qobiliyatlarni irodaviy sifatlarga integrativ rivojlanishi muhim psixologik omil ekanligi dalillangan;

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining kasbiy ko'nikmalari bolalar va ularning ota-onalari bilan ishlashda faoliyat va insonlarga yo'nalganlikni empatiya bilan uyg'un holatda namoyon bo'lishiga erishish muhimligi sababli, muloqotchanlik va ijtimoiy faollikka bog'liq ravishda «Hard», «Self» skills ko'nikmalariga integral shakllanishi asoslangan;

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarning dinamik shakllanishi interpersonal ta'sir jarayonidagi professional motivatsiyani kommunikativ qobiliyatlar va ijodiy fikrlashni kuchli ifodalanishiga bog'liqligiga asoslanib, pedagogik faoliyatdagi gnostik va emotsional qadriyatlar bilan shartlanganligi isbotlangan;

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun professional pozitsiyani namoyon qilishni ta'minlovchi

kognitiv, emotsional va motivatsion omillarning ta'sirini kuchaytirish muhimligi bois tafakkur egiluvchanligi, muloqotdagi pozitivlik hamda o'zgalarning kechinmalarini tushunish xususiyatining iroda kuchi lokalizatsiyasiga bog'liq rivojlantirish zarurligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagicha:

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik omillarini baholashga mo'ljallangan metodikalar tizimlashtirilgan;

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning hozirgi holati, uning uslubiy jihatlari o'rganilgan;

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari bo'yicha ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilganligi; xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi; empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Exsel», «SPSS 24.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning metodik imkoniyatlari aniqlanganligi, tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlash asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllanganlik darajasini baholash mezonlari hamda ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimining mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablarini ishlab chiqishda, tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlash, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish asosida mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan esa o'quv reja, fan dasturlari hamda malaka talablarini takomillashtirish, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik omillari» bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda ta'lim olish motivlari mas'uliyatlilik mustaqillikni, ijodiy fikrlash esa tashabuskorlik va maqsadga intiluvchanlikni namoyon bo'lishiga ta'sir etganligi tufayli, suggestiv qobiliyatlarni irodaviy sifatlarga integrativ rivojlanishi muhim psixologik omil ekanligi dalililanganligiga doir natijalar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-284-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-284a-son ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy ko'nikma rivojlanishining psixologik imkoniyati oshishiga erishilgan;

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining kasbiy ko'nikmalari bolalar va ularning ota-onalari bilan ishlashda faoliyat va insonlarga yo'nalganlikni empatiya bilan uyg'un holatda namoyon bo'lishiga erishish muhimligi sababli, muloqotchanlik va ijtimoiy faollikka bog'liq ravishda «Hard» , «Self» skills ko'nikmalariga integral shakllanishi asoslanganligiga doir natijalar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-284-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-284a-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy ko'nikmalarning shakllanishiga ta'sir etuvchi shaxs sifatleri takomillashtirilgan;

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarning dinamik shakllanishi interpersonal ta'sir jarayonidagi professional motivatsiyani kommunikativ qobiliyatlar va ijodiy fikrlashni kuchli ifodalanishiga bog'liqligi ta'sirida pedagogik faoliyatdagi gnostik va emotsional qadriyatlar bilan shartlanganligi isbotlanganligiga doir takliflar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-284-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-284a-son ma'lumotnomasi). Natijada kasbiy ko'nikma shakllanishining kasbiy moyillik va kasbiy yo'nalganlik bilan aloqadorlik jihatlariga erishilgan;

bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun professional pozitsiyani namoyon qilishni ta'minlovchi kognitiv, emotsional va motivatsion omillarning ta'sirini kuchaytirish muhimligi bois tafakkur egiluvchanligi, muloqotdagi pozitivlik hamda o'zgalarning kechinmalarini tushunish xususiyatining iroda kuchi lokalizatsiyasiga bog'liq rivojlantirish zarurligi asoslanganligiga doir takliflar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-284-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-284a-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy ko'nikmani rivojlantirishning psixologik dasturi va modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan

ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqot usullari, obyekt va predmeti aniqlangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va tadqiqot tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish muammosining ilmiy-nazariy sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridagi kasbiy ko'nikma muammosiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish va tadqiqot maqsadiga mos ravishda tizimlashtirishga oid xorij hamda mamlakatimiz psixolog olimlarining mavzuga oid nazariy qarashlari umumlashtirilgan.

O'zbekistonda psixolog olimlarning ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, B.R.Qodirov, A.M.Jabborov, Sh.R.Barotov, V.M.Karimova, F.F.Ganjiyev, F.I.Xaydarov, Sh.B.Saparov, K.B.Qodirov, Sh.J.Usmanova, S.X.Djalilova va boshqalar shaxsiy sifatlar, kasbiy ma'suliyat muammosini tadqiq qilishda ijtimoiy muhit ta'siri, kasbiy sifatning barqarorligi va dinamikasining tarkibiy qismlari kabi muammolarni ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan B.G.Ananyev, A.V.Dmitriyev, I.S.Kon, V.T.Lisovskiy, Z.F.Yesareva, S.L.Rubinshtey, V.M.Myasishchev, V.A.Slastenin, V.P.Kashirin, M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovich va boshqalar shaxsiy sifatlar fenomenini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Xorij olimlaridan A.Bandura, G.V.Kaprara, D.Marsha, M.Talen, A.Maslou, K.Rodgers, M.Vudstok, D.Frensis, P.Lipman, Dj.Levi va boshqalar tadqiqotlarida tarbiyachi shaxsiga xos bo'lgan bilimdonlik, ijodkorlik, mustaqillik hamda pedagogik faoliyat uchun mas'uliyat va javobgarlik kabi masalalari tadqiq qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalar darajasini o'rganishning empirik natijalari**» ga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning empirik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalariga ta'sir etuvchi omillar orasidagi korrelyatsion bog'lanishlar natijalari o'z aksini topgan.

«Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalarda kasbiy ko‘nikmalarni aniqlash» so‘rovnomasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=375)

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)		Farqlar
	1-bosqich n=200	3-bosqich n=175	t
Motivatsiya	2,4	4,5	-2,6*
Kommunikativ qobiliyatlar	1,9	3,4	-2,8*
Ijodiy fikrlash	2,2	4,3	-2,4*

Izoh: *p<0,05; **p<0,01

«Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalarda kasbiy ko‘nikmalarni aniqlash» so‘rovnomasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlil qilindi. Jumladan, «motivatsiya» ($t=-2,6$; $p\leq 0,05$), «kommunikativ qobiliyatlar» ($t=-2,8$; $p\leq 0,05$) hamda «ijodiy fikrlash» ($t=-2,4$; $p\leq 0,05$) omillarida ishonchi farqlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «motivatsiya» omili bo‘yicha 3-bosqich talabalarida ijobiy natijalar kuzatildi ($t=-2,6$; $p\leq 0,05$). Ushbu natijalar, xususan, motivatsiya omilining rivojlanishida o‘quv jarayonining bosqichma-bosqich murakkablashuvi, amaliy mashg‘ulotlar sonining ko‘payishi va talabalarning kasbiy faoliyatga yaqinlashuvi muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Motivatsiyaning oshishi talabalarning ta’limga qiziqishi, ichki ehtiyojlarini anglashlari va kelajak kasbiy faoliyatini ongli ravishda rejalashtirishlari bilan izohlanadi. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, bu jarayon shaxsning o‘zini anglash, o‘zini rivojlantirishga intilish va professional maqsadlarni aniq belgilash kabi omillar orqali qo‘llab-quvvatlanadi. 3-bosqich talabalarida kuzatilgan ijobiy natijalar, ularning o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy faoliyatga tatbiq etishga intilishlari hamda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida motivatsiya omili asosiy psixologik tayanch vazifasini bajarishini ko‘rsatadi.

Navbatdagi «kommunikativ qobiliyatlar» omiliga ko‘ra, 1-bosqich talabalariga qaraganda 3-bosqich talabalarida yuqori natijalar aniqlandi ($t=-2,8$; $p\leq 0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, 3-bosqich talabalarining bolalar bilan samarali va konstruktiv muloqot o‘rnatish, ota-onalar va hamkasblar bilan aniq va to‘g‘ri fikr almashish qobiliyatlarining rivojlanganligi bilan izohlanadi. Bu omilning yuqori darajada namoyon bo‘lishi, shuningdek, talabalarning ijtimoiy muhitda o‘zaro munosabatlarni barqaror saqlash va kelishuvchanlik qobiliyatining yuksak ekanligini tasdiqlaydi. Kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganligi talabalarning kelgusidagi o‘qituvchilik faoliyatida ijtimoiy hamkorlikka va samarali muloqotga bo‘lgan ehtiyojlariga javob bera olishini ko‘rsatadi.

Metodikaning so‘nggi «ijodiy fikrlash» omili bo‘yicha 3-bosqich talabalarida yuqori natijalar qayd etildi ($t=-2,4$; $p\leq 0,05$). Jumladan mazkur bosqichda tahsil olayotgan talabalar o‘quv jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash va o‘z fikrlarini ijodiy tarzda ifoda etishga moyilliklari bilan ajralib turadi. Bunday natijalar, shuningdek, talabalarning pedagogik jarayonni qiziqarli va samarali tashkil etish qobiliyatining yuksak ekanligini va ularning kasbiy ijodiy

salohiyatining ortganligini tasdiqlaydi. Ijodiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishi, ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning individual ehtiyojlariga mos yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 3-bosqich talabalarida motivatsiya, kommunikativ qobiliyatlar va ijodiy fikrlash omillarining yuksak darajada namoyon bo'lishi, ularning pedagogik vazifalarga bo'lgan jiddiy munosabati va kasbiy tayyorgarlik darajasining yuqoriligidan dalolat beradi. O'z navbatida, talabalarining kasbiy faoliyatga to'liq moslashuvchanligini va kelajakda samarali o'qituvchi bo'lish uchun zarur bo'lgan psixologik ko'nikmalarga ega ekanligini anglatadi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida kasbiy yo'nalganlik darajasi so'rovnomasini hududlar kesimida olingan natijalar tahlil qilindi.

2-jadval

Kasbiy yo'nalganlik darajasi so'rovnomasi natijalari (Kraskela-Uollisa kriteriyasi bo'yicha)

Shkalalar	Guruhlar			H	p
	QarDU	TDPU	ADU		
O'ziga yo'nalganlik	28,57	39,30	22,82	13,27	0,003
Muloqotga yo'nalganlik	22,45	26,49	31,70	10,22	0,005
Kasbiy faoliyatga yo'nalganlik	34,52	40,14	27,62	17,46	0,002

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida «Kasbiy yo'nalganlik darajasi so'rovnomasi» bo'yicha olingan natijalar o'rtasidagi o'zaro farqli tafovut o'rtachadan yuqori ahamiyatlilikni qayd etildi ($H=13,27$; $p=0,003^{**}$). Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy ko'nikmalar, ijodkorlik sifatleri, o'z ustida ishlash malakalari kabilarni shakllantirish hamda takomillashtirish ishlari dolzarb masalalardan biri sanalib, uni tadqiq etish o'ziga xos konseptual yondashuvlarga murojaat qilishni talab etishi tabiiydir. Shuning uchun ham psixologik tadqiqotlarda, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy ko'nikmani shakllantirish masalasi o'zini-o'zi takomillashtirish, kasbiy rivojlanish, kasbiy kamolot, kasbiy refleksiya kabi fenomen tushunchalar mohiyatini o'rganish orqali tushuntiriladi.

«Muloqotga yo'nalganlik» shkalasi bo'yicha o'rtacha farq namoyon bo'ldi ($H=13,27$; $p=0,003^{**}$). Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy faoliyati, o'zini-o'zi rivojlantirish masalalarining psixologik shart-sharoitlari, ko'pchilik tadqiqotchilar diqqat e'tiboridan chetda qolgan. Shuning uchun ham, o'quv faoliyatida kasbiy ko'nikma masalasi unga yaqin bo'lgan tushunchalar orqali o'rganiladi. Demak, kasbiy barkamol, ijodkor, namunali maktabgacha ta'lim yo'nalishi xodimi nafaqat, o'z sohasiga oid kompetentlikka ega bo'lishi balki maktabgacha ta'lim jarayonining samaradoligiga xizmat qiluvchi ko'plab ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar qoidalarini puxta o'zlashtirgan bo'lishlari lozim sanaladi.

So'rovnomaning so'nggi «Kasbiy faoliyatga yo'nalganlik» omilida yuqori farqlarni qayd etildi ($H=17,46$; $p=0,002^{**}$). Bo'lajak maktabgacha ta'lim yo'nalishi xodimining kasbiy ko'nikma va izlanuvchanlik mahorati pedagogik-psixologik texnologiyalarni kasbiy faoliyatda mohirona qo'llash hamda o'z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish kabi sifatlar bilan izohlanadi.

3-jadval

«Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarda kasbiy ko'nikmalarni aniqlash» so'rovnomasi hamda «Shaxs irodaviy sifatlarini o'rganish metodikasi» omillari o'rtasidagi aloqadorlik (n=375)

Omillar	Motivatsiya	Kommunikativ qobiliyatlar	Ijodiy fikrlash
Ma'suliyatlilik	0,34*	0,09	0,15
Tashabbuskorlik	0,16	0,07	0,38*
Jur'atlilik	0,12	0,14	0,10
Mustaqillik	0,37*	0,18	0,17
Matonatilik	0,18	0,13	0,15
Qat'iylik	0,19	0,35*	0,13
G'ayratlilik	0,11	0,11	0,18
E'tiborlilik	0,17	0,32*	0,11
Maqsadga intiluvchanlik	0,14	0,18	0,37*

Izoh: * $p<0,05$; ** $p<0,01$

Tahlillar asosida aniqlangan natijalar shuni ko'rsatadiki, «motivatsiya» omili va shaxsiy iroda sifatlaridan «ma'suliyatlilik» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) hamda «mustaqillik» ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) o'rtasidagi ijobiy bog'lanish talabalarning kasbiy shakllanish jarayonida o'z vazifalariga nisbatan chuqur yondashuvini ifodalaydi. Bu bog'lanish talabalarning kelajakdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimi sifatida mas'uliyatlilikni his qilishiga va mustaqil qarorlar qabul qilishga moyilligini ko'rsatadi. Bunday natija talabalarning kasbiy tayyorgarlikka nisbatan yuqori motivatsiyaga ega ekanliklarini, bu esa o'z navbatida, kasbiy maqsadlarga erishish yo'lida mas'uliyat bilan harakat qilishlarini anglatadi. Shuningdek, mustaqillik omili talabalarning murakkab pedagogik vaziyatlarda mustaqil yechim topish qobiliyatini mustahkamlash bilan birga, ularga ta'lim jarayonida ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga imkon beradi.

«Kommunikativ qobiliyatlar» omilining «qat'iylik» ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) hamda «e'tiborlilik» ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) omillari o'rtasidagi bog'lanish esa talabalar orasida kommunikativ ko'nikmalarning shakllanishida ijobiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu bog'lanish shuni ko'rsatadiki, talabalarda qat'iylik va e'tiborlilikning yuqori darajada namoyon bo'lishi ularga pedagogik faoliyatda ishonch bilan muloqot qilish, bolalar va hamkasblari bilan aniq muloqot o'rnatishga yordam beradi. Muloqotda qat'iyatlilik talabalarni o'z fikrlarini aniq ifoda eta olishga va bolalar bilan ishlashda e'tibor qaratishga, bolalarning ehtiyojlariga mos javob bera olishga undaydi. Kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanishi talabalarning o'zaro hamkorlikka ochiqligi, o'z fikrini aniq bayon qilish va boshqalarni tinglashga intilishini mustahkamlaydi.

«Ijodiy fikrlash» omilining «tashabbuskorlik» ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) hamda «maqsadga intiluvchanlik» ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish talabalar o'rtasida ijodiy qobiliyatlarning yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ushbu bog'lanish ijodiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishida tashabbuskorlik va maqsadga yo'naltirilganlikning muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Talabalar o'z pedagogik faoliyatida yangi yondashuvlarni qo'llashga va o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish uchun qiziqarli mashg'ulotlar ishlab chiqishga intilishadi. Ularning o'z ishiga ijodiy yondashuvda tashabbus ko'rsatishini va belgilangan maqsadlarga intilishini oshiradi. Shu bilan birga, ijodiy fikrlash qobiliyati ularning pedagogik jarayonni o'ziga xos tarzda tashkil qilishiga, bolalarning qiziqishini yanada oshirishga imkon beradi, bu esa kasbiy kompetensiyalarning mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur korrelyatsion tahlil shuni ko'rsatadiki, talabalarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik va maqsadga intilish kabi shaxsiy iroda sifatleri alohida o'rin tutadi. Ushbu sifatlar talabalarning kasbiy shakllanishi jarayonida rivojlanib, kelgusida samarali pedagogik faoliyat uchun zaruriy asos bo'lib xizmat qiladi.

4-jadval

«Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarda kasbiy ko'nikmalarni aniqlash» so'rovnomasi hamda «Shaxs yo'naliganligini aniqlash metodikasi» omillari o'rtasidagi aloqadorlik (n=375)

Omillar	Motivatsiya	Kommunikativ qobiliyatlar	Ijodiy fikrlash
O'ziga yo'nalganlik	0,32*	0,12	0,18
Insonlarga yo'nalganlik	0,18	0,34*	0,14
Faoliyatga yo'nalganlik	0,14	0,17	0,41*

Izoh: * $p<0,05$; ** $p<0,01$

«Motivatsiya» omili va «o'ziga yo'nalganlik» omili o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) talabalar motivatsiyasi va o'zini rivojlantirishga qaratilgan intilishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tasdiqlaydi. Ushbu bog'lanish talabalarning o'z kasbiy tayyorgarliklariga nisbatan jiddiyroq yondashib, o'zlarini yanada mukammallashtirishga intilayotganligini anglatadi. Ularning o'ziga yo'nalganligi kasbiy rivojlanish jarayonida kuchli ichki motivatsiyani shakllantirib, talabalarga o'z qobiliyatlarini mustaqil rivojlantirish va kasbiy muammolarni hal qilishda o'ziga ishonchni orttirishga yordam beradi. Mazkur natija, ayniqsa, ularning kelgusidagi pedagogik faoliyatda murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishda va kasbiy mas'uliyatni chuqur anglashda muhim omil hisoblanadi. Motivatsiyaning o'ziga yo'nalganlik bilan ijobiy bog'liqligi talabalarga o'z kasbiy yo'nalishlarini aniq belgilash, shaxsiy rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirishda barqarorlik ko'rsatishga xizmat qiladi.

«Kommunikativ qobiliyatlar» omili va «insonlarga yo'nalganlik» o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) talabalarning kommunikativ ko'nikmalarida ijtimoiy yo'nalganlik va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni samarali qurishga intilish kuchayishini ko'rsatadi. Bu o'zaro bog'lanish talabalar uchun pedagogik jarayonda bolalar, ota-onalar va jamoadoshlar bilan to'g'ri muloqot qilish, bolalarning ehtiyojlarini his qilish va ular bilan konstruktiv aloqalarni o'rnatishda


ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omilning yuqori ko'rsatkichlari talabalarning pedagogik jarayonda samarali muloqot qilishda qat'iyat va barqarorlikka ega bo'lishiga yordam beradi. Kommunikativ qobiliyatlarning insonlarga yo'nalganlik bilan aloqadorligi talabalarda ijtimoiy muloqotga bo'lgan ochiqlikni va ijtimoiy hissiyotlarni rivojlantiradi. O'z navbatida, ularning pedagogik muhitda boshqalar bilan aniq va tushunarli fikr almashish, o'qitish jarayonida bolalar bilan samarali muloqot qilish, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, insonlarga yo'nalganlik talabalarning bolalar bilan til topishish, ular bilan individual yondashuv asosida muloqot qilish va har bir bolaning ehtiyojlariga javob berish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

«Ijodiy fikrlash» omili hamda «faoliyatga yo'nalganlik» o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,41$; $p\leq 0,05$) talabalar o'rtasida ijodiy faoliyat va tashabbuskorlikka qaratilgan intilishlarning yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ushbu bog'lanish talabalarning kasbiy faoliyatda ijodiy yondashuvlarni qo'llash, yangi usullarni ishlab chiqish va ta'lim jarayonida innovatsion g'oyalarni sinab ko'rishga bo'lgan qiziqishini ifodalaydi. Ijodiy fikrlash qobiliyatining faoliyatga yo'nalganlik bilan bog'lanishi o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishda talabalarning o'zini namoyon qilishlariga imkon beradi. Bu esa ularga maktabgacha ta'lim jarayonida ijodiy faollik va yangi didaktik yondashuvlarni qo'llash orqali bolalarning qiziqishini jalb qilishda, ta'lim jarayonini kengaytirish va yanada boyitish imkoniyatini beradi. Mazkur bog'lanish, ayniqsa, talabalar tomonidan o'z faoliyatida mustaqil yondashuvlarni ishlab chiqish, turli didaktik vositalar va usullardan ijodiy foydalanish orqali ularning kasbiy mahoratini oshirishda yordam beradi. Ushbu korrelyatsion natijalar har bir omil bo'yicha ijobiy aloqadorlikni tasdiqlaydi va shaxsiy iroda sifatlarining talabalar kasbiy shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini ochib beradi. Motivatsiya, kommunikativ qobiliyatlar va ijodiy fikrlash omillari orqali talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida mas'uliyatlilik, muloqotda qat'iyat, ijodiy faoliyatga tayyorlik kabi psixologik xususiyatlarning mustahkamlanishi aniqlangan bo'lib, bu kasbiy tayyorgarlik va pedagogik jarayonlarda talabalar uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Dissertatsiyaning «**Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning amaliy asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi o'z aksini topgan.

Tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan modelning asosiy mazmuni bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Ularning har biri, shaxsning keyingi o'zini-o'zi rivojlantirishi uchun muhim tarkibiy qismlarga jumladan, kognitiv, emotsional va motivatsion sohalarni rivojlantirishga bo'lgan asosiy hamda muhim psixologik xususiyatlar bilan qamrab olinadi. Kasbiy ko'nikmalar shakllanishi jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay bilish, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish, o'zini baholash va nazorat qilishi natijasida mazkur ko'nikmaga ega bo'lishi bilan alohida belgilanadi.

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI XODIMIDA KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH MODELI



Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish modeli nazariy asoslar, amaliy mexanizmlar va shaxsiy rivojlanish omillarining uyg'unlashuviga tayanadi. Ushbu modelda nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, pedagogik va psixologik texnologiyalarni qo'llash, kommunikativ va refleksiv malakalarni rivojlantirish ham muhim o'rin tutadi.

Model xodimning professional faoliyatida bolalar bilan samarali ishlash, tarbiyaviy jarayonlarni tashkil qilish, ijtimoiy-psixologik vaziyatlarga moslashish hamda innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Natijada, kasbiy ko'nikmalar bosqichma-bosqich mustahkamlanib, xodimning pedagogik mahorati va ijodiy yondashuvi ortadi. Shu bois, ushbu model maktabgacha ta'lim tizimida

professional kompetentlikni rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda bolalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

5-jadval

«Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarda kasbiy ko'nikmalarni aniqlash» so'rovnomasi orqali olingan natijalarining qiyosiy tahlili (n=375)

№	Komponentlari	Guruhlar	Treningdan oldingi	Treningdan keyingi	Farqlanish	
			M ₁	M ₂	t	p
1.	Motivatsiya	Tajriba guruhi (n=140)	2,6	4,8	-2,4	0,05
		Nazorat guruhi (n=235)	2,8	3,2	-1,9	0,13
2.	Kommunikativ qobiliyatlar	Tajriba guruhi (n=140)	2,5	4,7	-2,5	0,05
		Nazorat guruhi (n=235)	2,9	3,4	-1,3	0,15
3.	Ijodiy fikrlash	Tajriba guruhi (n=140)	2,3	4,7	-2,8	0,05
		Nazorat guruhi (n=235)	2,8	3,1	-1,9	0,14

